

RAQAMLI JAMIYATDA TOLERANTLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARINING NATIJALARI

Kurbonov Akram Amonovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: akramkurbanov88@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli jamiyatda tolerantlik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining natijalari joy olgan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarda o'zaro hurmat, madaniyatlararo muloqot, tanqidiy fikrlash hamda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, tolerantlik kompetensiyalari, tajriba-sinov ishlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy mas'uliyat.

РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ТОЛЕРАНТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация: В данной статье представлены результаты экспериментального исследования по формированию толерантных компетенций в цифровом обществе. В процессе исследования анализируются возможности развития взаимного уважения, межкультурного общения, критического мышления и социальной ответственности у обучающихся с использованием современных информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: цифровое общество, толерантные компетенции, экспериментальные исследования, информационно-коммуникационные технологии, межкультурное общение, социальная ответственность.

RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON FORMING TOLERANCE COMPETENCES IN THE DIGITAL SOCIETY

Abstract. This article presents the results of an experimental study on the formation of tolerance competencies in a digital society. The research analyzes the possibilities of developing mutual respect, intercultural dialogue, critical thinking, and social responsibility in learners through the use of modern information and communication technologies.

Keywords: digital society, tolerance competencies, experimental work, information and communication technologies, intercultural dialogue, social responsibility.

Kirish

Zamon va makon doirasida Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni bag'rikenglik, o'zaro hurmat, ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim jarayoni nafaqat bilim, ko'nikma va malaka berish, balki talabalarda tolerantlikka asoslangan ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish zaruriyatini taqozo etadi. Shu jihatdan tajriba-sinov ishlari aniq ijtimoiy-madaniy muhitda, real ta'lim-sharoitlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Asosiy qism

Bugungi kunda ta'lim tizimida "tolerant" shaxsning xususiyatlarini shakllantirish, ularning jamiyat barqarorligi yo'lida munosib ishtirok etishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talaba-yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalarini samarali baholashning yangi mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar motivatsion(rag'batlantirish), kognitiv(anglash va idrok etish), amaliy(tajribaga asoslangan), refleksiv(o'zini tahlil qilish) kabi zamonaviy talablarga mos va xos mezonlar orqali baholashga yo'naltirilganligi bilan samaralidir.

3.2.1-jadvalda formativ va multiaspektli baholash turlarini motivatsion(rag'batlantirish), kognitiv(anglash va idrok etish), amaliy(tajribaga asoslangan), refleksiv(o'zini tahlil qilish) mezonlar bo'yicha tahlili keltirilgan. Bu jadval Yangi O'zbekiston yoshlari ongida tolerantlik va ma'naviy-axloqiy immunitetni shakllantirish metodikasini integrativ hamkorlik asosida takomillashtirishga nisbatan formativ va multiaspektli yondashuvlarni tushunishga, ularga tolerantlik xususiyatlarini turli jihatlar bilan baholash imkoniyatini beradi. Mazkur jadvalda keltirilgan mezon va ko'rsatkichlar yordamida tajriba va nazorat guruhlarida tolerantlik hamda ma'naviy-axloqiy immunitet darajasidagi o'zgarishlar solishtirma tahlil qilinadi.

3.2.1 –
jadval

Tolerantlik kompetensiyalarini baholash mezonlarini taqqoslash hamda ko'rsatkichlar tahlili

Motivatsion mezon	Formativ baholash	Multiaspektli baholash	Yuqori, o'rta, past daraajalar
	Talaba-yoshlarning o'qishga bo'lgan qiziqishi, faolligi va ichki rag'batini ta'lim jarayoni davomida muntazam qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan baholash turi hisoblanadi.	Talaba-yoshlarning ta'lim faoliyatiga bo'lgan ichki rag'bat, qiziqishi, faolligi va o'zini rivojlantirishga intilishi bir nechta jihatdan, ya'ni turli ko'rsatkichlar asosida birgalikda va tizimli baholashga yo'naltirilgan baholash turidir	

Kognitiv mezon	Talaba-yoshlarning bilimni o'zlashtirish darajasi, tushunishi, tahlil qilishi va qo'llay olish qobiliyatini ta'lim jarayoni davomida muntazam aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan baholashdir.	Talaba-yoshlarning bilim, tushuncha, tahlil, sintez va xulosalar chiqarish qobiliyatini bir nechta jihatdan, ya'ni turli ko'rsatkichlar asosida tizimli va doimiy baholashdir. Bu baholash talaba-yoshlarning faqat faktlarni yodlashni emas, balki ularni tushunishi, mustaqil fikrlashi va amaliyotga tadbiq etishini ham ko'rsatadi.
Amaliy mezon	Talaba-yoshlarning nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish, topshiriqlarni bajarish jarayonidagi ko'nikma va malakalarini ta'lim jarayoni davomida muntazam kuzarish, tahlil qilish va rivojlantirishga qaratilgan baholash turidir.	Talaba-yoshlarning nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, topshiriqlarni bajarishdagi faolligi va natijadorligini bir nechta jihatdan tizimli ravishda baholash usulidir.
Refleksiv mezon	Talaba-yoshlarning o'z o'quv faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi, yo'l qo'yilgan xatolarni anglashi hamda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash qobiliyatini ta'lim jarayoni davomida muntazam rivojlantirishga qaratilgan baholash turidir.	Talaba-yoshlarning o'z o'quv faoliyati, amaliy topshiriqlari va natijalari ustida tahlil qilish, o'zini baholash, xatolarni aniqlash va kelgusida rivojlanish yo'llarini belgilash qobiliyatini bir nechta jihatdan tizimli baholash usulidir.
Ko'rsatkichlar		
Ijtimoiy-psixologik ehtiyoj, aksil-konfliktli yo'nalish, qadriyatga yo'nalgan motivatsiya; terminologik, normativ-huquqiy va interdissiplinar bilim; Ijtimoiy-kommunikativ, konflikt-menejment va faol fuqarolik kompetensiyalari; O'zini-o'zi baholash, metakognitiv va kritik fikrlash malakalari.		

“O'zbekistonning eng yangi tarixi”, “Dinshunoslik”, “Falsafa” fanlarini o'qitish bo'yicha talaba-yoshlarning tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishda motivatsion(rag'batlantirish), kognitiv(anglash va idrok etish), amaliy(tajribaga asoslangan), refleksiv(o'zini tahlil qilish) mezonlar asosida baholash ko'rsatkichlarini belgilash ta'lim jarayonida samarali yondashuvni yaratadi. Formativ va multiaspektli baholash turlaridan foydalanish talaba-yoshlarning mustaqil tahlil, fikrlash, ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi, o'z bilim va ko'nikmalarini tanqidiy baholash, xatolar ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirdi.


Natijalar

3.2.2 – jadval

Tajriba–sinovda qatnashgan o‘quvchilarning soni va ularning olgan baholari

№	Tajriba va nazorat guruhlarida o‘quvchilarning olgan baholari									
	Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
	O‘quvchilarning umumiy soni	5 (a‘lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)	O‘quvchilarning umumiy soni	5 (a‘lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
TATU Samarqand filiali										
1	20	6	6	7	1	19	2	5	10	2
Qarshi davlat pedagogika universiteti										
2	26	7	11	6	2	26	3	7	12	4
Jizzax davlat pedagogika universiteti										
3	24	8	9	4	3	22	4	3	11	4
Jami	70	21	26	17	6	67	9	15	33	10

O‘quvchilarning tajriba boshi va oxiridagi o‘zlashtirish dinamikasini hosil qilamiz (1–rasm):



1-rasm. O‘quvchilarning tajriba boshi va oxiridagi o‘zlashtirish dinamikasi.

Muhokama

Tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayoni samaradorligini takomillashtirish bo‘yicha uning samaradorligini

aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlarini Styudent mezoni yordamida tahlil etdik.

Xulosa. Tadqiqot natijalari raqamli jamiyat sharoitida tolerantlik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni maqsadga yo'naltirilgan va tizimli tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarda o'zaro hurmat, madaniyatlararo muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash hamda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhiti orqali interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshirdi. Olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni ta'lim amaliyotiga joriy etish raqamli jamiyatda tolerant shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi hamda mazkur yo'nalishda olib boriladigan kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2023. – 240 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr, O'RQ–406-son.
3. Стариченко Б.Е. Обработка и представление данных педагогических исследований с помощью компьютера/ Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург, 2004. – 218с.
4. Johnson D., Johnson R. Teaching Tolerance in Digital Learning Environments. – New York: Routledge, 2019.